



UDK: 1751

ORCID: 0009-0001-8100-3304

ZEBO MIRZO VA HALIMA AHMEDOVA SHE’RLARIDA POETONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

G‘ofurova Ruxsora Sarvarbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

e-mail: ruxsoragofurova2@gmail.com Tel: 91 0654847

Annotatsiya: Ushbu maqolada poetonimlarning rivojlanish tarixi, yozuvchilar tilidagi leksik komponentlarning lug‘atlarini yaratish nazariyasi va amaliyoti ko‘rib chiqiladi. Poetonimik lug‘atlarning mavjud bo‘lgan turlari , shuningdek Zebo Mirzo va Halima Ahmedova she’rlarida joy nomlari va shaxs ismlarining lingvopoetik xususiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: onomastik metafora, allyuziv nom, onomapoetika, topopoetonim, gidropoetonim, presedent nom

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОЭТОНИМОВ В СТИХОТВОРЕНИЯХ ЗЕБО МИРЗО И ХАЛИМЫ АХМЕДОВОЙ

Аннотация: В статье рассматривается история развития поэтонимии, теория и практика создания словарей лексических компонентов языка писателей. Рассматриваются существующие типы поонимических словарей, а также лингвопоэтическая природа топонимов и личных имен в стихотворениях Зебо Мирзо и Халимы Ахмедовой.

Ключевые слова: ономастическая метафора, аллюзивное имя, ономапоэтика, топопоэоним, гидропоэоним, прецедентное имя.

LINGUOPOETIC FEATURES OF POETONYMS IN THE POEMS OF ZEBO MIRZO AND HALIMA AHMEDOVA

Abstract: This article examines the history of the development of poetonyms, the theory and practice of creating dictionaries of lexical components in the language of writers. The existing types of poetonymic dictionaries are considered, as well as the linguopoetic nature of place names and personal names in the poems of Zebo Mirzo and Halima Ahmedova.

Key words: onomastic metaphor, allusive name, onomapoetics, topopoetonym, hydropoetonym, precedent name.

KIRISH.

Poetonim – atoqli otlarning poetik uslubiy maqsadda qo‘llanishi. Har bir nom o‘z ma’no xususiyatiga ega bo‘lib, undagi atab qo‘yish tarixi va sababi mavjud. Xususan poetonimlar shaxs, joy, narsaga berilgan maxsus kod hisoblanib ular nafaqat nasriy asarlarda shuningdek nazmda ham aniq bir mazmunni yoritib keladi. Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodida poetonimlar ko‘plab topiladi va lingvopetik tadqiq qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Nomlar har bir xalqning millat sifatida o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayni vaqtida ular o‘sha xalqning lisoniy, tarixiy va madaniy boyligi hamdir. Nomlar ajdodlardan avlodlarga qoluvchi ma’naviy meros sifatida ham qadrlidir. Ular bir avloddan ikkinchi avlodga o‘tar ekan, o‘zi bilan birga o‘sha xalqning lisoniy tamoyillari, madaniyati, ma’naviyati, tarixi haqidagi ma’lumotlarni ham olib o‘tadi. Nomlar zaminida yashiringan ma’nolar bizga xalqning uzoq kechmishi , uning adabiyoti, san’ati, ma’daniyati, urf-odatlari, tabiiy sharoitlari haqida aniq axborot beradi.”²⁹⁸

O‘zbek tilshunosligida onomapoetika dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tilshunosligimizda onomastik birliklarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari doir bir qator ishlar olib borilgan.²⁹⁹ Onomastik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari esa o‘zbek tilshunosligida D.Andaniyozova tomonidan maxsus tadqiq etiladi.³⁰⁰

Poetonimlarning she’riy matnda allyuziv nom vazifasida kelishi eng faol hodisalardan biri hisoblanadi. Ular badiiy matnda presedent nomlar(xalqning lisoniy xotirasida saqlanuvchi mashxur faktlar bilan bog‘liq nomlar) ning funksional turlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mashxur adabiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy faktlarga ishora ilib kelish xususiyatiga ega bo‘lgan allyuziv nomlar ma’lum ma’noda talmeh san’atiga teng keladi. Ular o‘quvchini matndan tashqari konteksga yo‘naltirib, o‘qilayotgan asar va ishora qilinayotgan asarning dialogik aloqasini tiklaydi, natijada matn ishora qilinayotgan matn mazmuni bilan boyib, uning badiiy estetik salmog‘i ortadi.³⁰¹

“Poetonimlarning she’riy matndagi yana bir muhim vazifasi onomastik metaforani yuzaga keltirishidir.”³⁰² “Onomastik metafora metaforaning o‘ziga xos turi sifatida she’riy

²⁹⁸ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

²⁹⁹ Xudoynazarov I. Antropomilarning til lug‘at tizimidagi o‘rn ni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss.-Toshkent. 1998; Qurbonov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. - Samarqand, 2006; Rashidova M. O‘zbek tilidagi laqablarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. —Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008; Begmatov E. Ismlarning sirli olami. - Toshkent: O‘zbekiston, 2014; Xasanov N. O‘zbek antropomilari tarixi. - Toshkent: Navro‘z, 2014

³⁰⁰ Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. - Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2006

³⁰¹ D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent “Akademnashr” 2010

³⁰² Ономастик метафора хакида каранг: Воронцов Р.И. Ономастические метафоры в русском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. - Санкт-Петербург, 2012; Анданиязова Д. Тилшунослика ономастик метафора талкини // Узбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 2016. —№ 1. - Б . 106-112 .

matnlarda betakror obrazlilikni yuzaga keltiradi. Onomastik metaforadan ko‘p hollarda mavhum tushunchalarni predmetlashtirish, ularni jonli qiyofada tasvirlash maqsadida foydalaniladi.”³⁰³

O‘zimni aldayman o‘lim oldida

Hayotga talpingan **Isoday** takror. (Halima Ahmedova)

“ISO, Iso Masih — Qur’onda tilga olingan payg‘ambarlardan biri. Islomda Muhammad (S.A.V)dan oldingi payg‘ambar sifatida alohida e’zozlanadi. Qur’onda, shuningdek, «al-Masih» («xudo yarlaqagan»), Ibn Maryam («Maryamning o‘g‘li»), Abdulloh («Allohnning quli»), Rasululloh («Allohnning elchisi»), Allohnning muqarrabi (yaqini), «Haqni so‘zlovchi», deb ta’riflanadi. Iso masih haqida turli rivoyatlar va qarashlar mavjud. Ulardan eng ko‘pi to‘g‘ri deb qaralgan faraz Iso payg‘ambarning qayta tirilishiga ishonish. Qur’onda nomi zikr etilgan paygambarlardan biri bo‘lgan Iso alayxissalomning laqabi. Qur’oni Ka- rimning “Oli Imron” hamda “Moida” suralarida yozilishicha, o‘likka qo‘l tekkizib, uni tiriltira olish Iso alayxissalomning karomatlaridan biri bulgan. Masih nomini “hayotbaxsh, tiriltiruvchi” ma’nolarida qo‘llash an’anasi XX va XXI asr o‘zbek

she’riyatida ham davom etib, bunda ushbu nomdan Iso alayhissalomning yuqorida tilga olingan karomatiga ishora qilish, biror shaxs, predmet yoki voqeа-hodisani Masihga o‘xshatish kabi maqsadlarda foydalanilgan. Bunda Masih poetonimi asosan talmeh, o‘xshatish kabi badiiy san’atlarni yuzaga keltirishda lingvopoetik vosita bulgan.³⁰⁴ Yuqoridagi misrada ham lirik qahramon o‘z umr soatlari tugab borayotgan bo‘lsada xuddi *Iso masih* kabi yana dunyoga qaytish umidi borligini tasvirlamoqda. Yani ijodkor onomastik metafora orqali poetonimdan foydalangan. O‘qurman ongida esa bu oson tushunilishga xizmat qiladi.

Bo‘m- bo‘sh vujudimda adashib ketar

Bu tun yolg‘izlikdan yurak –**Robinzon** (Halima Ahmedova)

Zebo Mirzo qalamiga mansub ushbu she’rda yana bir onomastik metaforani kuzatishimiz mumkin. Qahramon hissiy kechinmalari shunchalar tushunarsiz, ga‘royibki, yolg‘izlik uni hech kimsasi yo‘q orolda tasvirlamoqda. Hamma uchun mashxur bo‘lgan Daniel Defoning “Robinzon Kruzoning ajoyib va g‘aroyib sarguzashtlari” asari tasvirida yolg‘izlikda umr kechirgan qahramon obrazi yoritib berilgan. Shoira esa yolg‘izlikni bir shaxs timsoli orqali o‘quvchiga aniq va mukammal tarzda yetkazib bergen. Yani *Robinzon* leksik birligi vositasida butun bir misrani anglab olish mumkin.

Badiiy matnda Robinzon Kruzo nomi allyuziv nom sifatida qo‘llanib, yuqoridagi adabiy faktga ishora qilib kelgan. Bunda mazkur nom o‘quvchi xotirasini Daniel Defo asaridagi voqealarga yo‘naltirib, o‘qilayotgan matn mazmunini boyitishga xizmat qilgan.³⁰⁵

³⁰³ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

³⁰⁴ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

³⁰⁵ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

Dunyoda bir sirli ertakni suydim,
Ertak tushga aylandi.
Dunyoda bir ojiz erkakni suydim
Alpomishga aylandi. (Halima Ahmedova)

O‘zbek xalq folklorida avloddan- avlodga o‘tib kelayotgan qahramonlik dostoni “Alpomish”dir. U hamisha ongimizda mard, jasur, dovyurak, yurtini ximoya qilgan qahramon, yorini dushmanlar qurshovidan qutqargan oshiq misolida gavdalanadi. Alpomish xalqimiz xotirasida hamisha yetuk shaxs, har bir ayol idealidagi inson bo‘lib qolgan. Lirik qahramon ham o‘z suygan insonini xuddi Alpomishga o‘xshashini xohlaydi. Yuqoridagi misrada onomastik metafora sifatida lirik qahramon yorni Alpomish obrazi orqali tasvirlagan. Alpomish nomi mashxur o‘zbek xalq qahramonlik dostoni bosh qahramoni. Alpomish dostonda mard va oriyatli, g‘ururi baland, o‘z elining haqiqiy o‘g‘loni sifatida tasvirlangan. Alpomishning asl ismi Hakimbek bo‘lib 7 yoshida otgan o‘qi Asqar tog‘ning bir cho‘qqisini yulib o‘tgani uchun 99 alp qatoridan joy olgan va unga Alpomish (Alp “polvon” ma’nosini bildiradi) nomi berilgan. Alpomish poetonimi she’riy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanib, u orqali dostonning muayyan syujetiga ishora qilingan. Bunda Alpomish poetonimi vositasida intertekstuallik hosil qilinishi natijasida matn mazmuni va ta’sirchanligi ortgan.³⁰⁶

Men dunyoning eng chekkasiga
Yetib kelgan edim savdoi,
Bir osiyning
Marg‘ub sasiga
Kirib keldi **Hazrat Navoiy** (Zebo Mirzo)

ALISHER, Alisherbek Alisher Navoiy (1441-1501) buyuk o‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi. O‘z she’riyati, xususan, turkiy tilda birinchi marta yaratilgan “Xamsa” epik dostoni bilan o‘zbek adabiyotini jahon miqyosiga ko‘targan shaxs. She’riy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanib, Alisher Navoiyning turkiy tilni va o‘zbek adabiyotini rivojlantirish yo‘lidagi bebaho xizmatlariga hamda uning asarlariga ishora qilingan. She’riy matnlarda onomastik metaforani hosil qilib, o‘quvchida “Alisher Navoiy kabi buyuk shoir” assotsiatsiyasini paydo qilgan. Bunda Alisher poetonimi “tengsiz iste’dod sohibi bulgan shoir” jumlesi ma’nosiga yaqinlashgan.³⁰⁷

Poetik matnga nazar solsak lirik qahramon shunchalik yorining ishqida kuyib yonayotganini va unga tasalli zarur bir paytda Navoiy dalda berish uchun keladi. Ijodkor naqadar go‘zal o‘xshatish (metafora) orqali o‘quvchini o‘yga toldirgan. Azaldan bilamizki Navoiy ijodi oshiqlikda tengsiz yor timsolini gavdalantirgan.

³⁰⁶ Durdonha Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

³⁰⁷ Durdonha Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

O‘tgan oshiq ahlining zori erur har bir xazon,
To‘zg‘itar ishq gardini, qo‘rqtgani sabo mani,

Qo‘rqmagayman jon aro garchi jahannam xandası,
Izlarim surma ertaga, izlagay **Laylo** mani.(Zebo Mirzo)
Balki **Layli** ko‘nglum bor edi,
Balki ruhda **Majnunning** holi.
Bu dunyoning tor qafasiga
Sig‘may o‘ldi ishqim hayoli. (Zebo Mirzo)

Layli va Majnun nomlari she’riy matnlarda o‘xshatish etaloni vazifasida kelib, badiiy mazmun ekspressivligi, ta’sirchanligi uchun xizmat qilgan. Jumladan, U. Nosir she’rni Layloga, uzini esa Majnunga o‘xshatish orqali she’riyatga bo‘lgan mehri beqiyos ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, muhabbat mavzusidagi she’rlarda Layli va Majnun nomlari ta’riflanayotgan sevgining behad teranligini yoritishda lingvopoetik vosita bulgan. Saharda qon tupursam, mayli. Men - Majnunman, she’rim, sen - Layli! (U.Nosir. Yana she’rimga). Oshiqda ishq bo‘lsa mukammal, Ma’shuqani etarmish shaydo. Majnunligim anglab u go‘zal zora sevsə bamisli Laylo. (E.Bolidov. Shoirga maktub) Yig‘ladim, oh urdim misoli Majnun, Naylayin, seningdek Layli yo‘q edi. (T.Niyoz. Xotira - so‘lmas gul) Kelar bulsang

yo‘lingga gul tushardim, Sen Layliga, men Majnunga o‘xshardim, Bu dunyoda hijronni deb yashardim, Endi seni izlab qaydan toparman. (M.Yusuf. Muhabbatim) Jahonda ikki dilbarning Biri sensan, biri Laylo, Jahonda ikki oshiqning biri menman, biri Majnun (E.Bolidov. Rubobim tori ikkidur...).³⁰⁸

Majnun ishq, muhabbat yo‘lida devona bo‘lgan kimsa, savdoyi. Bu devona shaharning katta- kichchigidan o‘ziga ixlosmandlar orttirgan bir majnun edi. A. Qodiriy, O’tkan kunlar.³⁰⁹

Ko‘plab shoirlar ijodida oshiqni Majnunga yorni esa Layliga o‘xshatish an'anasi mavjud. Yuqoridagi misollarning barchasi erkak ijodkorlar bo‘lib Majnun

pozitsiyasida ko‘rishimiz mumkin. Ayollar she’riyati nuqtayi nazaridan esa bu holat biroz o‘zgacharoq.Yani misralar orqali shoira nozik qalb, iffat, nazokat ila oshiqligini izhor qilmoqda. Ayniqsa o‘zbek milliy qadryatlarga xos bo‘lgan lisoniy birliklardan foydalangan. Misol uchun “tor qafas” leksemasiga nazar solaylik, sharq ayollar o‘z sevgisini hamisha pinhon saqlab yashashi odatiy holdir.Bunda shoiraning ishqisi faqatgina ko‘ngligagina ayonligini shu tor qafasga qiyoslamoqda.

Shiroq manglayiga bitilgan maktub
Bizningdir, manglayi yutoqqancha o‘p,
Faqat qo‘yma uni bir kun yo‘qotib,

³⁰⁸ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

³⁰⁹O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

Qismat afsonadur, ruhing munavvar.

Turon xalqlarining axamoniylar podshosi Doro I bosqiniga qarshi kurashgan xalq qahramoni. Yunon tarixchisi Poliyenning yozishicha, Shiroq Doro I ga Eron qo‘sini saklar qabilasi turgan yerga qisqa yo‘l bilan olib borishini aytadi. Dushman uning gapiga ishonib, Shiroq ortidan yo‘lga tushadi. Shiroq ularni Qizilqum ichkarisiga olib ketadi va 7-kuni buning hiyla ekanligini oshkor qiladi. Qo‘sining asosiy qismi cho‘lda qirilib ketadi. Shiroq esa qilich bilan chopib tashlanadi. Vatanga sadoqat, ona-yurt qadri mavzusidagi she’rlarda Shiroq nomi qo‘llanib, uning tarixiy jasoratiga ishora qilish orqali allyuziya hosil qilingan. Natijada badiiy mazmunning ta’sirchanligi ortgan. Vatan nadur, so‘nmagan Yorqin yulduz-qaroqdur. Bosh egishga ko‘nmagan Vatan - jasur Shiroqdur. (M.Mirzo. Vatan nadur) Jonim Vatan, jon tomiring Tillolarga alishmasman. Shiroq o‘tgan saxrolaring Daryolarga alishmasman. (Z.Muminova. Alishmasman) Yovni adashtirib o‘lim dashtida Ko‘krak ochib qah-qah urganda Shiroq hali o‘zbek emas, lekin olamga Mashhur eding soqu sug‘d ona bo‘lib. Iskandarni majruh etgan kamonim - O‘zbekistonim (E.Bolidov. Uzbekiston).³¹⁰

Men— jannatdan quvilgan **Havvo**,

Ko‘zlarimga yorug‘ olam yo‘q.

Tentirayman zulmatlar aro,

Odamzod ko‘p,

Ammo **Odam** yo‘q!...

ODAM ATO, MOMO HAVO. Odam Ato va Momo havo nomlari Vatan, muhabbat mavzusidagi she’riy matnlardal allyuziv nom sifatida qo‘llanib, Qur’oni karimdagagi oyatlar mazmuniga ishora qilib kelgan. Diniy matnga mansub nomlar hamda mazmun elementlarining she’riy matnga kiritilishi natijasida intertekstuallik yuzaga kelib, badiiy mazmunning ekspressivligi ta’minlangan. Qaylardan boshlanar tarixing, Vatan? Balki Momo Havo ertaklaridan. Balki Odam Ato qadam qo‘yan yer, Yo O‘rxun - Enasoy bitiklaridan? (Z.Mirzayeva. Vatan).³¹¹

Bir ko‘zi **Sayxunu** birisi **Jayxun**,

Dardlari **Zarafshon**, giryonaman men.

Onomastik terminologiyada gidropoetonim topopoetonimlarning adabiy matnda tilga olingan suv havzasini ifodalovchi maxsus sinfidir. Gidropoetonim- adabiy matnda tilga olingan suv havzasining nomi bo‘lgan topopoetonimlar guruhi 1) haqiqatdan mavjud bo‘lgan suv havzalarining nomlari: Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, Baykal va boshqalar 2)noto‘g‘ri ya’ni muallif tomonidan ixtiro qilingan nom: a) bunda obyektning to‘liq nomi, milliy onomastikada an’anaviy toponimika usullari asosida mavjud yoki bu usullardan vos kechish

³¹⁰ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

³¹¹ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016

yo‘li bilan yaratilgan b)qisman; nom haqiqiy onomastikadan olingan va geografik obyekt ixtiro qilingan.³¹² V.M.Kalinkin “Adabiy onomastika yoki onim poetikasi” o‘quv qo‘llanmasida “ko‘pincha poetonimiyaning manbayi yozuvchi tomonidan o‘ylab topilgan, bu tilning haqiqiy onomastikasida bo‘lмаган ismlar (fiktonimlar) bo‘ladi.”³¹³

“SAYXUN, JAYXUN 1 Sirdaryo va Amudaryo gidronimlarining arxaik shakli bo‘lgan Sayxun va Jayxun so‘zlarini qo‘llash, asosan, she’riy matnlarga xos bo‘lib, yuqori poetik uslubni yaratishda lingvopoetik vosita bo‘lgan.” Bizlarga suv kerak, katta suv kerak!” Haq esa so‘raydi to‘lovsiz xunni. Ko‘za sindirganning ra'yiga qarab, Oshkora xo‘rladik Sayxun, Jayxunni (E.Shukur. Bizlarga suv kerak...). Q.Jayxun.

2 O‘zbek she’riyatida tinimsiz yosh to‘kayotgan oshiqning ikki ko‘zini, shuningdek, yorning ikki o‘rim sochini Sayxun va Jayxunga o‘xshatish an‘anaga aylangan. Bunda mazkur poetonimlar ham yashirin o‘xshatish, ham mubolaga san‘ati yuzaga kelishida lingvopoetik vosita bo‘lgan. Nigorim chashmi ikkidur: biri yag‘mo, biri jodu, Bu jodudan ikki ko‘zim Biri Sayxun, biri Jayxun. (E.Vohidov. Dutorim tori ikkidur...) Ikki sochingkim, urib to‘lqin, oqar yelkang uza, Birda Sayxun mavj otib, ul birda Jayxun aylanib (J.Jabborov. Aylanib).”³¹⁴

“Jayxun(J-katta)tar. Amudaryoning qadimgi nomi. Tunlar qator -qator, Safga tizilib o‘tar, qo‘l ushlashib, quvnashib, Jayxun sariga ketar. D. Fayziy.”³¹⁵

Ammo uning Zarafshon deb atalishi to‘g’risida xalq og‘zaki adabiyotida qiziq bir afsona bor. Uning qisqacha variantini K.F.Butenev quyidagicha keltiradi: Qadim zamonlarda. hozirgi Buxoro shahri joylashgan viloyat va uning atrofidagi keng hudud Zarafshon daryosining toshqin suvlari bilan qoplangan ko‘l va botqoqliklardan iborat bo‘lgan. Makedoniyalik Iskandar bu viloyatni quritish maqsadida daryoning bo‘sish bo‘lgan qismiga oltindan to‘g’on qudirib suvni bog’lagan. Natijada daryoning yuqori oqimida katta ko‘l hosil bo‘lib uning quyi

oqimidagi botqoqliklar qurigan. Ammo oltin to‘g’ondan oqib o’tgan suv uni yuvib mayda oltin zarrachalarini o‘zi bilan quyiga olib borgan. Shuning uchun ham daryo Zarafshon, ya’ni oltin keltiruvchi nomini olgan. Lekin bu Zarafshon daryosi to‘g’risidagi afsona, xolos. Zarafshon toponimiyasi qanday kelib chiqqanidan qat’iy

nazar, har holda daryoning oltin keltiruvchanligi K.F.Butenev yozganidek, faqat uning nomiga asoslanmay, balki suvining vodiylari xalqi uchun nihoyatda keraklidir. Lekin bu xususida turli xil manbalarda turlicha ma'lumotlar keltirilgan.³¹⁶

³¹² Лингвистические и лингвопоэтические функции гидропоэтонимов. Базарова. Р

³¹³ Калинкин В. М. Литературная ономастика, или Поэтика онима. Методические указания к спецкурсу. Для студентов филологических факультетов. Донецк, 2002. 39с

³¹⁴ Durdona Xudoyberganova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo” 2016

³¹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

³¹⁶ ‘Oriental Art and Culture’ Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X “Tarixiy manbaalarda

“Zarafshon- zar sochuvchi, tilladek tovlanuvchi; yarqirovchi, yaltiroq. Yurting qayer, qaysi eldan kelgansan? Zulfi zrafshonim, qaydan bo‘lasan? «Ravshan». Avaz irg‘ib turib tokchadagi bir dasta qog‘ozlari orqasidan varaqlari zrafshon qilingan katta kulliyot ko‘tarib keldi. S. Siyoyev. Yorug‘lik.”³¹⁷

XULOSA.

Poetonim badiiy matn tarkibida kelib ongimizda tezlik bilan yodga keluvchi va tushunilishi oson bo‘lgan leksik birlik. Ayniqsa she’riy matn mazmunida ma’noni kuchaytirish hamda hissiy bo‘yoq berishga ko‘maklashadi. Biz yuqorida ko‘rgan Zebo Mirzo va Halima Ahmedova ijodida poetonimlarning allyuziv nom sifatida qo‘llanib onomopoetonim, gidropoetonim, topopoetonim shakllarini lingvopoetik vazifa bajarganini kuzatdik. Shoiralar ijodida poetonimlar keng o‘rin tutadi. Ularda asosan tarixiy shaxslarni onomastik metafora sifatida foydalanib she’rlarida chuqur mazmun, ifodaviylik, hayajon, jonlantirish, kurash, baxt va baxtsizlik kabi holatlar tasviri bor.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Durdona Xudoyberanova. Dilrabo Andaniyozova. O‘zbek tili poetonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent. “Turon zamin ziyo”2016
2. Xudoynazarov I. Antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss.-Toshkent. 1998; Qurbanov T. Badiiy asarlardagi toponimlarning lingvistik tahlili va izohi masalalari. - Samarqand, 2006; Rashidova M. O‘zbek tilidagi laqablarining leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. —Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008; Begmatov E. Ismlarning sirli olami. - Toshkent: O‘zbekiston, 2014; Xasanov N. O‘zbek antroponimlari tarixi. - Toshkent: Navro‘z, 2014
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent
4. Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. - Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2006
5. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent “Akademnashr” 2010
6. Ономастик метафора хакида каранг: Воронцов Р.И. Ономастические метафоры в русском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. - Санкт-Петербург, 2012; Анданиязова Д. Тилшунослика ономастик метафора талкини // Узбек тили ва адабиёти. -Ташкент, 2016. —№ 1.- Б . 106-112.
7. Лингвистические и лингвопоетические функции гидропоэтонимов. Базарова. Р
8. Калинкин В. М. Литературная ономастика, или Поэтика онима. Методические указания к спецкурсу. Для студентов филологических факультетов. Донецк, 2002.39c

³¹⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A. Madvaliyev tahriri ostida. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent

9. 'Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (3) III/2020 ISSN 2181-063X
“Tarixiy manbaalarda Zarafshon toponimikasi” Rasulova Dilfuza Saypullayevna
10. Zebo Mirzo.Ishq.Toshkent “Akademnashr” 2011
11. Halima Ahmedova.Tunggi marvaridgullar.Toshkent.G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1988
12. Halima Ahmedova. Erk darichasi. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti,1996
13. Halima Ahmedova.Umid soyasi.”Nihol”nashriyoti.2008